

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA  
KIRUVCHILAR UCHUN**

**SAVOLLAR KITOBI**

ABITURIYENT: \_\_\_\_\_  
F.I.O. Imzo

**ABITURIYENT DIQQATIGA!**

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan boyicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

**Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.**

**Kitob tipi: 32**

**FANLAR:**

*Blok 1: Ona tili va adabiyot*

*Blok 2: Biologiya*

*Blok 3: Kimyo*

Savollar kitobi raqami: **1701314**

Toshkent – 2017

## ONA TILI VA ADABIYOT

1. Sharros yomg'irlar havoni tozalaydi, larzakor chaqmoqlar dilga jo'shqinlik beradi, sho'x qushlar insonga kuch-quvvat ato etadi.  
Berilgan gap tarkibidagi sodda yasama so'zlarning yetakchi morfemalari qaysi so'z turkumlariga mansub?  
1) ot; 2) sifat; 3) fe'l; 4) ravish; 5) taqlid so'z; 6) undov so'z  
A) 2, 3, 6 B) 1, 2, 3, 5 C) 1, 4, 5 D) 2, 4, 5, 6
2. Taqillaydi eshik nogahon,  
-Kimsan?- Deyman tugab sabotim,  
-Ochgil, -deydi. -Bu -men, qadrdon,  
Bilmoq bo'lsang-bardoshdir otim.  
Ushbu she'riy parchada nechta egasi yashirilgan soda fe'l kesimli gap mavjud?  
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4
3. Qaysi gaplarda otlashgan sifatdosh bilan ifodalangan vositali to'ldiruvchining kesimga tobelanishi kuzatiladi?  
1. Bilmagandan bilgan yaxshi, to'g'ri ishni qilgan yaxshi.  
2. O'tirganlar otning baland ovozda kishnaganini eshitishdi.  
3. Yaxshiga yaxshi nom fe'lidan yetar,  
Sha'niga barcha el rahmatlar aytar.  
4. Topganingdan yo'qatganing ortiqcha bo'lmasin, -dedi nabirasiga.  
A) 1, 3 B) 1, 4 C) 1, 2, 4 D) 1, 3, 4
4. **Bodroq, yo'q** so'zlariga quyidagi qo'shimchalarni qo'shilganida fonetik hodisa kuzatiladi?  
A) faqat jo'nalish kelishigi qo'shimchasi  
B) jo'nalish kelishigi va egalik qo'shimchalari  
C) faqat egalik qo'shimchalari  
D) bodroq so'ziga egalik va jo'nalish kelishigi, yo'q so'ziga egalik qo'shimchalari
5. Qaysi javobda ko'makchi morfema sifatida qo'llanishi mumkin bo'lgan jarangli undoshlar berilgan?  
A) b, k, m, ng, d B) n, ch, r, t C) l, n, q, y D) v, y, b, l, m
6. Respublikamiz maktablari o'quvchi hamda o'qituvchilarini darsliklar va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlashni ko'ngildagidek yo'lga qo'yaylik.  
Ushbu gapdagi gap bo'laklarining grammatik bog'lanishi haqida berilgan qaysi fikr to'g'ri?  
A) kesimga bevosita bog'langan bo'laklar faqat bitishuv usulida tobelangan  
B) qaralmishlar kesimga bevosita va bilvosita bog'langan  
C) aniqlovchini ergashtirib kelgan aniqlovchi qatnashgan  
D) barcha to'ldiruvchilar kesimga bilvosita bog'langan
7. **Qorabotir yurtning erkasi, jo'ralarning serkasi edi.**  
Ushbu gapdagi qaralmishlar haqida noto'g'ri hukmni aniqlang.  
A) egani tobelantirib kelgan  
B) uyushiq murakkab kesim vazifasini bajargan  
C) aniqlovchi vazifasini bajargan  
D) aniqlovchini tobelantirib kelgan
8. Qaysi gapda fe'lning vazifa shaklini hosil qiluvchi qo'shimcha bilan omonim bo'la oladigan nisbat qo'shimchasini olgan fe'l qatnashgan?  
A) Menga shuncha yaxshilik qildingiz, necha bor meni yomon yo'ldan qaytardingiz.  
B) Nurga to'ldi dara, to'ldi soy, Nur yog'ildi qorong'i jarga.  
C) Tuproq uyumidan sakrab o'tgan. Alijon qaytarma etigiga yopishgan changni jahl bilan qoqdi.  
D) Qishloqdan chiqarkan, boy tog'asidan albatta xizmat so'rashni onasi uqtirgan edi.
9. Yaproqlar tebranar **she'r** maqomiga,  
**Chechaklar** jimgina egib turar **bosh**.  
Marmar sarhovuzning kumush jomiga  
Shoir ko'zlaridan oqib tushar **yosh**.  
Ushbu she'riy parchada ajratib ko'rsatilgan so'zlardan nechtasi shakldoshlik xususiyatiga ega?  
A) 1 B) 4 C) 2 D) 3
10. Quyidagi berilgan nechta so'z har xil so'z turkumi doirasida shakldosh bo'la boshladi?  
**o'ch, band, bo'sh, maqom**  
A) 2ta B) 4ta C) 3ta D) 2ta
11. Berilgan so'zlardan nechtasi sodda ravishlar sanaladi?  
**birin-ketin, bafurja, saharlab, olg'a, vaqtincha, u yerga, ertalabki, qasddan, ochiqchasiga**  
A) 6tasi B) 5tasi C) 7tasi D) 4tasi
12. Son turkumiga oid so'z otlashgan gaplarni aniqlang.  
1. To'qqizida bo'lmagan aql to'qsonida ham bo'lmas. 2. Ikki yomon qo'shilsa, keng dunyoga sig'maydi. 3. Mingta shirin nasihatdan bitta o'mnak yaxshi. 4. Birni bersang otangga, mingni olasan bolangdan.  
A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 3 C) 1, 2, 4 D) 1, 4
13. Berilgan gapda qaysi mustaqil so'z turkumlariga oid so'zlar qatnashgan?  
O'sha kuni kechasiyoq qahramonliklar ko'rsatib, shon-u shuhrat taratib, o'qituvchilarimni hayratda qoldirdim.  
A) olmosh, ravish, ot  
B) ravish, ot fe'l  
C) ot, sifat, ravish, fe'l  
D) olmosh, ot fe'l
14. Qaysi gapda yordamchi so'zlarning barchasiga oid birliklar qo'langan?  
A) Ashula nihoyasiga yetdi, lekin bir zumdan keyin qaytadan yangi tovuş parvoz qildi.  
B) San'atkor kishilarga ta'sir etish uchun izlanishi va ijod qilishi kerak.  
C) Faqat siz o'ksinmang, chunki dunyoda faqat siz uchun yashayapman.  
D) Tilning mana shu yetukligi uning go'zalligini va undan foydalanuvchining, ya'ni so'zlovchi yoki yozuvchining nutqiy mahoratini ta'minlaydi.
15. Qo'shma gap berilgan javobni toping.  
A) Odam bolasi elektr simi emaski, musbat yo manfiyga ajratsang.  
B) Ish ko'pligi-yu, vaqt yo'qligidan nolimang.  
C) Aytishlaricha, ko'zguda inson quvvatini so'rib olish xususiyati bor ekan.  
D) Insoniyat orol bo'lib emas, qit'a bo'lib yashashni o'rganmog'i lozim.
16. Qaysi gapda imloviy xatolik uchramaydi?  
A) Barcha ilmlarni mukammal egallab olishining iloji yo'q, shuning uchun ham eng kerakli, e'tiqodga xizmat qiladigan ilmlarni o'rganish kerak.  
B) Xayoliga kelgan fikrlarni aytishga xayiqdi.  
C) Mafkuramizning yagona milliy mafkura ekanligi, bu maqomning O'zbekistonda istiqomat qilayotgan va shu yurtning fuqarosi sanalgan boshqa millat vakillari manfaatlariga zid kelmasligi barchaga ayon.  
D) Keyingi yillarda ilm-fan, sport, ijod, san'at va boshqa sohalarida erishilgan olamshumul yutuqlarimizni esga oling.
17. Sizing bu hayotda orzularingiz ko'zlagan maqsadingiz qiladigan ishlaringiz ko'p lekin hech qachon unutmangki sizning eng buyuk eng muqaddas vazifangiz yurtimiz istiqololini xalqimiz ozodligini ko'z qorachig'iday asrashdir.  
Ushbu gapda tushirilgan vergullarning nechtasi faqat uyushgan bo'laklar o'rtasida ishlatiladi?  
A) 5 B) 3 C) 4 D) 2
18. Shoxlarda mezonlar yaltirar xira,  
Poyida shivirlar mening kuylarim,  
Do'stlarim, bular ham mezonmas sira,  
Bu — mening chuvalgan, so'ngsiz o'ylarim.  
She'riy parcha tarkibida ishtirok etgan qaratqich aniqlovchilar qaysi bo'laklarga nisbatan tobe bo'lak vazifasini bajargan?  
A) hol, ega, kesim B) ega, kesim C) kesim, ega, kesim D) kesim, aniqlovchi
19. Ergash gap qismida uyushgan to'ldiruvchi ishtirok etgan ergashgan qo'shma gapni toping.  
A) Sa'diy Sheroziy xalq donishmandligining nodir namunalariga o'z iste'dodi bilan sayqal berib, "Guliston" va "Bo'ston"ni yaratdi.  
B) Hammasi joyida, do'stlar, men hech kimdan, hech narsadan xafa emasman.  
C) Xalqimiz o'tmishda ko'plab hokimliklar, xohlik va amirliklar tuzgan, shuning uchun uning ko'plab poytaxtlari bo'lishi tabiiydir.  
D) Quyosh bosh ko'tarib chiqadi-yu, uxlab yotgan dov-daraxtlar, giyohlar, borliqni uyg'otib yuboradi.
20. Iboralar bilan ifodalangan sifatlovchi aniqlovchi egaga tobelangan gapni aniqlang.  
A) Ayollar, yig'lab ko'nglingizni bo'shatishdek ne'mat ato etgani uchun Allohga shukur qiling.  
B) Ostonada eti borib suyagiga yopishgan qari i cho'zilib yotardi.  
C) Kampir hayotdan ko'z yumganida qishloqlari uni o'sha ko'chadan

- ko'tarib o'tishdi.*  
D) *Qishloqda beva-bechora, qo'li qisqalarning uyi eng avval tomsuvoq qilinardi.*
21. Qilichbozlar, otliqlarning yurti bu,  
Moziyga boq, kimsan, aytar bu ko'zgu,  
Kelajakni sen qurasan, baxtni quv,  
Yur, o'g'lonim, elni ko'tarish uchun. (M. A'zam)  
She'riy parchada nechta kesim ot kesim sanaladi?  
A) 2ta B) 3ta C) 4ta D) 1ta
22. Qaysi gapda ham ot, ham sifat yasovchi qo'shimcha bilan omonim bo'la oladigan shakl yasovchi qo'shimcha qatnashmagan?  
A) *Sotqinlarga safimizda o'rin yo'q.*  
B) *Ota olov va suv girdobkina ozodlik maydoniga chiqq oladigan o'g'li borligidan g'ururlanar edi.*  
C) *Chaqin bo'lma, bo'lma guldurak.*  
D) *Ko'chaning narigi yuzidagi do'konga bordik.*
23. Berilgan she'riy parchada yasama so'zlar necha o'rinda ishtirok etgan?  
Mulki borliq ichra bir mahal,  
Ko'rkamgina olam yaralgan.  
Bermoq uchun dunyoga sayqal,  
Olam aro odam yaralgan.  
A) 5 B) 4 C) 3 D) 2
24. Shakl yasovchi qo'shimcha bilan omonim bo'la oladigan so'z yasovchi qo'shimcha(lar) qatnashmagan gaplarni aniqlang.  
1. Vatan - kelinchakning orzulari qanotida parvoz etib kirgan eshigi. 2. Qizcha qo'g'irchog'ini astagina yotqizib qo'ydi.  
3. Chaqin bo'lma, bo'lma guldurak. 4. Sotqinlarga safimizda o'rin yo'q.  
A) 2, 3 B) 1, 3, 4 C) 1, 2 D) 1, 2, 4
25. Qaysi adib, zamondoshlarining eslashlaricha, qo'shiqni o'rmiga qo'yib kuylagan, ko'plab milliy va Ovroqpa musiqiy asboblarni mahorat bilan chala olgan, o'zi yozgan qaysi pyesalarga rejissorlik qilgan, ularda asosiy rollarni o'ynagan?  
A) *Behbudiy* B) *Hamza* C) *Fitrat* D) *Abdulla Avloniy*
26. Odil Yoqubov qalamiga mansub dramani aniqlang.  
A) *"Larza"* B) *"Muqaddas"* C) *"Qaydasan, Moriko"* D) *"Chin muhabbat"*
27. Po'lat nayza qor ustida yotarmi,  
Temir nayzang egovlasang o'tarmi,  
Sening to'rang nomardlardan emasdir,  
Mard o'g'lon sevdigin tashlab ketarmi?...  
Ushbu misralar qaysi doston qahramoni tilidan aytilgan?  
A) *"Rustam"da Rustam*  
B) *"Kuntug'mish"da Kuntug'mish*  
C) *"Alpomish"da Alpomish*  
D) *"Ravshan"da Ravshan*
28. Qaysi g'azalda oshiq ko'zlaridan qonli yoshning to'kilishi bahor faslida soylardagi suvlarning loyqalanib oqishiga mutanosib tasvirlangan?  
A) *Mashrabning "O'ttum" radiqli g'azalida*  
B) *Zahiriddin Boburning "Mening ko'nglumki..." g'azalida*  
C) *Ogahiyning "Navro'z" radiqli g'azalida*  
D) *Fuzuliyning "Mani jondan o'sondirdi" g'azalida*
29. "Sayohatnoma" asarida Muqimiy:  
Bir ko'cha ketguncha do'kon,  
Sho'x odami, ichmay piyon,  
Mast otasi bezor ekan...  
misralarida qaysi joyni ta'riflagan?  
A) *Nursuxni* B) *Do'rmanchani* C) *Oltiariqni* D) *Zohidonni*
30. Davlat qo'nsa bir chibinning boshig'a,  
Semurg' qushlar salom berar qoshig'a...  
Ushbu bayt xalq dostonlaridagi qaysi qahramon tilidan aytilgan?  
A) *Alpomish* B) *Boysari* C) *Kuntug'mish* D) *Boybo'ri*
31. Navoiyning qaysi g'azali ichki qofiyaga ega?  
A) *"Jong'a chun dermen..." deb boshlanuvchi g'azali*  
B) *"Ko'rgali husnugni zor-u ..." deb boshlanuvchi g'azali*  
C) *"Ko'nglung istar yorlar birla..." deb boshlanuvchi g'azali*  
D) *"Qoshi yosinmu deyin..." deb boshlanuvchi g'azali*
32. Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da "maqtovlarga loyiq zot", "yaylovlari cheksiz zot" deya qayta-qayta ulug'langan zot kim?  
A) *Sraosha* B) *Axura Mazda* C) *Mitra* D) *Narya Sanha*
33. Shermuhammad Munisning "Shirinsuxan Laylivashim vaqtiki qohir bo'lg'usi" deb boshlanadigan she'ri kimning g'azaliga bog'langan muxammas sanaladi?  
A) *Boburning* B) *Alisher Navoiyning* C) *Mashrabning* D) *Fuzuliyning*
34. "U Xorazm hokimi Nursaidbek oilasida dunyoga kelgan. ...otasi ham, bobosi ham temuriylar saroyida xizmat qilishgan. Keyinchalik u Buxoro, Chorjo'y, Niso viloyatlarining hokimi bo'lib ishlagan."  
Ushbu ma'lumot quyidagi qaysi ijodkor haqida?  
A) *Muhammad Solih*  
B) *Poshshoxo'ja Abdulvahobxo'ja o'g'li Xoja*  
C) *Abulg'ozil Bahodirxon*  
D) *Komil Xorazmiy*
35. O'z ma'shuqasini ilk bora tushida ko'rgan badiiy qahramonni aniqlang.  
A) *Suhayl ("Suhayl va Guldursun")*  
B) *Ravshan ("Ravshan")*  
C) *Farhod ("Farhod va Shirin")*  
D) *Rustamxon ("Rustamxon")*
36. Qaysi baytlarda radif mutlaq qofiyadan keyin kelgan?  
1. Shifoyi vasl qadri hajr ila bemor o'landan so'r,  
Zuloli zavq shavqin tashnayi diydor o'landan so'r.  
2. Ko'rgali laling aqiqin ko'nglum ul yon tortadur,  
Bu yamon andishaliqni go'yo qon tortadur.  
3. Nigoro, sensizin mandin ne hosil,  
Agar jon bo'lmasa, tandin ne hosil?  
4. Ey orazi shams-u qamarim, netti, ne bo'ldi?  
Ey tishlari dur-u gavharim, netti, ne bo'ldi?  
A) 2, 3, 4 B) 3, 4 C) 2, 3 D) 1, 4

#### BIOLOGIYA

37. Quyonlarda quloq suprasining uzunligi 2 juft polimer genlarga bog'liq. Agar quloq suprasining uzunligi 24 sm li  $A_1A_1A_2a_2$  genotipli urg'ochi quyon va quloq suprasining uzunligi 16 sm li  $a_1a_1A_2a_2$  genotipli erkak quyon bilan chatishtirilsa, avlodning necha foizini quloq suprasining uzunligi 20 sm li quyonlar tashkil qiladi?  
A) 25 B) 75 C) 50 D) 12,5
38. Tishlarning qoramtir rangi ikkita dominant gen ta'sirida rivojlanadi. Bu genlarning biri autosomada, ikkinchisi X xromosomada joylashgan. Bu belgining autosomada joylashgan turiga ega bo'lgan erkak va jinsga birikkan turiga ega bo'lgan ayol oilasida tishlari normal bo'lgan qiz va o'g'il tug'ildi. Ushbu oilada tug'ilgan farzandlar orasidan tishlari normal o'g'il bolalarning tug'ilish ehtimolini (%) toping?  
A) 12,5 B) 50 C) 25 D) 75
39. Odamda giperxolesterinuriya dominant belgi sifatida autosomadagi genlar ishtirokida irsiylanadi. Gomozigotalilarda kasallik ateroskleroz va terida xavfsiz o'simtalarda paydo bo'lishi bilan kechadi. Geterozigotalilarda kasallik yengil o'tib, faqatgina qonda xolesterin miqdorining yuqori bo'lishi bilan xarakterlanadi. Gipertrixoz Y xromosomada joylashgan. Giperxolesterinuriyaning yengil formasi bilan kasallangan ayol o'ziga o'xshash va gipertrixoz bilan kasallangan erkakka turmushga chiqdi. Farzandlarning gipertrixoz bilan tug'ilish ehtimolligini (%) aniqlang.  
A) 25 B) 100 C) 75 D) 50
40. Xromosoma ayrim bo'lagining 180° ga burilishi (a) va DNK bo'lagi genomning ma'lum joylarga kirishi (b) qanday nomlanadi?  
A) *a-inversiya; b-inversiya*  
B) *a-inversiya; b-inversiya*  
C) *a-deletsiya; b-duplikatsiya*  
D) *a-inversiya; b-ekssiziya*
41. Energetik almashinuvining anaerob bosqichda 560 kJ energiya ATF da to'planadi. Aerob bosqichda esa 5800 kJ energiya issiqlik sifatida tarqaladi. Energetik almashinuvdagi jami energiya miqdorini (kJ) toping. (birinchi bosqichda 60 kJ energiya ajralgan)  
A) 14400 B) 14460 C) 15500 D) 15520
42. Ulotriks jinsiy ko'payish jarayonida 512 ta gameta hosil bo'lib, uning 25% idan zigota, zigotaning 50% idan ulotriks hosil bo'lsa, ulotriks iplarning sonini toping.

- A) 128 B) 64 C) 16 D) 32
43. Do'lanadagi oila (a) sinf (b) ga xos xususiyatlarni aniqlang.  
1) murakkab gulqo'rg'on; 2) ildiz tizimining turi; 3) barglarining tomirlanishi; 4) meva turi; 5) urug' murtakining tuzilishi; 6) poyaning ichki tuzilishi; 7) barglarning novdada joylashishi  
A) a-1,7; b-4,5  
B) a-4,7; b-5,6  
C) a-3,5; b-4,2  
D) a-1,6; b-3,4
44. To'g'ri ma'lumotni aniqlang.  
A) Bug'doy o'simligi hujayrasida 4-juft xromosomada delesiya yuz berganda 13 ta xromosoma bo'ladi.  
B) Makkajo'xori o'simligida 3-va 5-juft xromosomalar tarqalmay bitta qutbga to'planishi natijasida meyozi 1 yakunida 19 yoki 21 ta xromosomal hujayralar hosil bo'ladi.  
C) No'xat o'simligida 2-va 6-juft xromosomalar tarqalmay bir qutbga to'planishi natijasida meyozi 1 yakunida hujayrada 9 yoki 5 ta xromosoma bo'ladi.  
D) Qalampir hujayrasida to'rt juft gomologik xromosomalar faqat bitta qutbga to'plansa, meyozi 1 yakunida 45 yoki 51 ta xromosomal to'plam hosil bo'ladi.
45. Paleozoy (a) va mezozoy (b) eralariga xos biologik progresslarni aniqlang.  
1) qushlarda to'rt kamerali yurak; 2) qirg'uloqsimonlarda urug'; 3) hasharotlarda qanot; 4) stegosefallarda besh barmoqli oyoqlar; 5) sutemizuvchilarda jun qoplami; 6) sudralib yuruvchilarda qalin po'choq bilan qoplangan tuxum  
A) a-3,4; b-1,2 B) a-2,6; b-1,5 C) a-1,4; b-5,6 D) a-1,3; b-2,5
46. Biosfera tirik moddasining funksiyasi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
1) temir bakteriyalarining xemosintez qilishi; 2) atmosfera tarkibida kosmik chang zarralarining uchrashi; 3) hayvonlarning kislorod yutib CO<sub>2</sub> chiqarishi; 4) vulqonlarning otulishidan tog' jinslarining hosil bo'lishi; 5) geterotroflarning tayyor organik modda bilan oziqlanishi; 6) ildizoyoqli sodda hayvonlarda kalsiyning to'planishi  
A) 1,2,3 B) 2,4,5 C) 1,3,6 D) 4,5,6
47. Birlamchi konsument (a), ikkilamchi konsument (b) umurtqali organizmlar ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
1) taqaburun; 2) ko'l baqasi; 3) O'rta osiyo toshbaqasi; 4) qaldirg'och; 5) chuchuk suv gidrasi; 6) botqoq toshbaqasi; 7) hasva qandalasi; 8) kabarga; 9) chigirtka; 10) zuhr  
A) a-7,9; b-4,5  
B) a-3,4; b-1,2  
C) a-8,10; b-1,6  
D) a-6,10; b-3,4
48. Kumulyativ polimeriya epistaz irsiylanishdan farq qilib ...  
1) allel bo'lmagan genlarning o'zaro ta'siri hisoblanadi;  
2) digeterozigota duragaylarning avlodida 5 xil fenotipik sinf hosil bo'ladi;  
3) belgining rivojlanishida ikkita gen qatnashib, ulardan biri asosiy gen, ikkinchisi to'ldiruvchi hisoblanadi; 4) belgining rivojlanishi dominant genlar soniga bog'liq bo'ladi; 5) bir belgining rivojlanishi bir necha gen nazoratida bo'ladi;  
A) 3,4 B) 2,4 C) 1,2 D) 4,5
49. Bosh miyaning stvol qismida (a) va orqa miyada (b) joylashgan vegetativ nerv sistemasi markazlarining funksiyalarini aniqlang.  
1) yurakning minutlik sistolik hajmini oshiradi; 2) o'p'kalar ventilatsiyasini kuchaytiradi; 3) ko'z qorachig'ini kengaytiradi; 4) me'da shirasi ishlab chiqarilishini kuchaytiradi; 5) siydik pufagi muskullarini bo'shashtiradi; 6) siydik pufagi muskullarini qisqartiradi  
A) a-4; b-1,2 B) a-1; b-3,6 C) a-2; b-4,5 D) a-5; b-2,4
50. II qon guruhiga ega rezus musbat, sog'lom o'g'il bolaning katta qon aylanish doirasi arteriyalardagi qon plazmasida qanday moddalar bo'ladi?  
A) antitanalar, insulin, agglyutinini β, gemoglobin, glyukoza, fermentlar  
B) gormonlar, vitaminlar, antitanalar, glyukoza, agglyutinogen A  
C) antigemofil omil, agglyutinini β, gormonlar, vitaminlar, rezus omil  
D) aminokislota, mochevina, kreatinin, tiamin, agglyutinini β
51. Odamdagi o'mrov osti muskulining bo'yinning teri osti muskulidan farqini toping.  
1) vegetativ nerv sistemi orqali boshqariladi; 2) joylashuv ko'ra to'sh-o'mrov so'rg'ichsmon muskul bilan bir guruhga kiradi; 3) joylashuviga ko'ra diafragma muskuli bilan bir guruhga kiradi; 4) gavdaning ko'krak muskuli hisoblanadi; 5) suyakka birikadi; 6) boshning harakatini ta'minlaydi; 7) qo'lining harakatida ishtirok etadi  
A) 1,4,5 B) 1,5 C) 2,6 D) 3,4,7
52. Odam organizmida A vitaminining yetishmasligi natijasida ...  
A) enterit kasalligi kelib chiqadi, epitelii to'qimasining yangilanishi buziladi  
B) milklar qonaydi, tishlar to'kiladi, traxeyaning shilliq pardasi yallig'lanadi  
C) nerv tolalari falajlanadi, bronxlarning shilliq pardasi yallig'lanadi  
D) qo'l-oyoq muskullari uvushib og'riydi, nerv tolalari falajlanadi
53. Sezgi analizatorlari haqidagi noto'g'ri fikrni aniqlang.  
A) Terining derma qavatida sovuqni va siypalashni sezuvchi retseptorlar issiqni va og'riqni sezuvchi retseptorlarga nisbatan chuqurroq joylashgan.  
B) Gipermetropiya keksalarda ko'z gavhari do'ngligining ortib ketishi tufayli yuzaga keladi.  
C) Quloqning suyak labirinti bilan parda labirinti orasida perilimfa, parda labirinti ichida endolimfa suyuqligi bo'ladi.  
D) Harakat analizatorining oliy nerv markazi bosh miya katta yarimsharlari po'stlog'ining orqa markaziy egatida joylashgan.
54. Qoramol tasmasimon chuvalchangida nerv sistemasining sodda tuzilganligi, to'rtta so'rg'ichining bo'lishi hosil qilish organlarining yo'qolib ketganligi qanday evolyutsion jarayonlarni aks ettiradi?  
A) biologik progress, umumiy degeneratsiya  
B) umumiy degeneratsiya, biologik regress  
C) idioadaptatsiya, biologik regress  
D) biologik progress, aromorfoz
55. Qisqichbaqada ham, butli o'rgimchakda ham qorin qismida joylashgan a'zolari ko'rsating.  
1) zahar bezi; 2) oshqozon; 3) ichak; 4) jinsiy bez; 5) traxeya; 6) o'pka xaltasi; 7) yurak; 8) nerv zanjiri; 9) so'gallar; 10) yurish oyoqlari  
A) 5,6 B) 3,8 C) 1,2,10 D) 4,7,9
56. Bosh skeletsizlarning bosh skeletlardan farqini aniqlang.  
1) nerv sistemasi nerv nayidan iborat; 2) ichki skelet mavjud emas; 3) bosh va orqa miya markaziy nerv sistemasini hosil qiladi; 4) umurtqa pog'onasi rivojlanmagan; 5) qon aylanish doirasi yopiq; 6) skeleti suyak va tog'aydan iborat  
A) 1,4 B) 3,5,6 C) 2,4 D) 1,2,5
57. Quyida keltirilgan hayvonlar qushlar (a), sudralib yuruvchilar (b), suvda ham quruqlikda yashovchilar (c) sinflariga ajratib ko'rsatilgan javobni belgilang.  
1) kazuar; 2) iguana; 3) lira; 4) povituxa; 5) xameleon; 6) agama; 7) sezarka; 8) kvaksha; 9) salamandra  
A) a-2,3,7; b-1,5,9; c-4,6,8  
B) a-1,3,7; b-2,5,6; c-4,8,9  
C) a-2,5,6 b-4,8,9; c-1,3,7  
D) a-1,5,7; b-3,4,6; c-2,8,9
58. Jag'larida faqat kurak va oziq tishlari mavjud hayvonlarni aniqlang.  
1) lacha; 2) ondatra; 3) norka; 4) qashqaldoq; 5) nutriya; 6) tovushqon; 7) sug'ur; 8) suqsun; 9) yumronqoziq; 10) olaqo'zan  
A) 1,3,4 B) 2,5,7 C) 5,9,10 D) 6,7,8
59. Qoqshol qo'zg'atuvchisiga xos bo'lmagan xususiyat?  
1) tallomida hosil bo'lgan o'simalarni ajratish yo'li bilan ko'payadi; 2) irsiy belgilari polinukleotid zanjirda joylashgan; 3) membranasi lipid va oqsil moddalaridan iborat; 4) ribosomalari endoplazmatik to'r bilan hamkorlikda oqsil sintezini amalga oshiradi; 5) hujayra qobig'i murein moddasidan iborat bo'lib, irsiy belgilari yadroda joylashgan; 6) membranasi sitoplazmani hujayra qobig'idan ajratib turadi.  
A) 2,3,6 B) 1,4,5 C) 1,3,5 D) 2,4,6
60. Hujayra qobig'i sellulozadan iborat organizmlarga zarar keltiruvchi, hujayra qobig'i murein moddasidan iborat organizmlarni aniqlang.  
1) gommooz qo'zg'atuvchisi; 2) nozema; 3) vertitsill; 4) agrobakterium; 5) leyshmaniya; 6) zang zamburug'i; 7) tamaki mozaikasi  
A) 6,7 B) 2,5 C) 3,6 D) 1,4
61. Organogenez (I) va gametogenez (II) jarayonida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni aniqlang.  
1) o'zak organlar majmui hosil bo'ladi; 2) yetilish davrida hujayralar meyozi usulida ko'payadi; 3) ektodermadan nevr nayi vujudga keladi; 4) spermatogenezning o'sish davrida hujayralar tez kattalashadi; 5)

- endodermadan ayirish organlari rivojlanadi; 6) qushlarning ovogenezida shakllanish davri bo'ladi  
 A) I-1,5; II-2,4  
 B) I-2,4; II-1,5  
 C) I-1,3; II-2,6  
 D) I-2,6; II-1,3
62. Bir-biriga yaqin turlardan tashkil topgan sistemali birlikka mansub toza liniyalarni aniqlang.  
 1) jaydari g'o'za; 2) Meksika g'o'zasi; 3) kanop; 4) Misr g'o'zasi; 5) "Yulduz"; 6) "Buxoro-9"; 7) "Omad"; 8) "Toshkent-1"; 9) bo'ritaroq; 10) "Sangzor"  
 A) 5,6,7 B) 1,2,4 C) 7,8,10 D) 1,3,9
63. HaeIII restriktazasi uchun xos belgilarni ko'rsating.  
 A) to'rtta nukleotid juftligini taniydi, tarkibi bo'yicha transpazonga o'xshaydi  
 B) peptid bog' mavjud, to'rtta nukleotid juftligini taniydi  
 C) vodorod bog' mavjud, tarkibi transpazon bilan o'xshash  
 D) DNKni yopishqoq uchlar hosil qilib kesadi, peptid bog'larni uzadi
64. Zubtutum (a) va nastarin (b) ning to'pguliga xos belgilarni aniqlang.  
 A) a-asosiy gulpoyasi shoxlangan; b-atrofi o'rama bargchalar bilan o'ralgan  
 B) a-asosiy gulpoyasi shoxlanmagan; b-asosiy gulpoyasi shoxlangan  
 C) a-shoxlanmagan gulpoyaga gullar bandsiz birikkan; b-shoxlangan gulpoyaga to'g'ri gullar yig'ilgan  
 D) a-umumiy gulpoya qisqa, gullar bir tekislikda joylashgan; b-uzun gulpoyada gullar ketma-ket joylashgan
65. Bodiyn (a) va bo'tako'z (b) ning to'pguliga xos belgilarni aniqlang.  
 A) a-umumiy gulpoya qisqa, gullar bir tekislikda joylashgan; b-uzun gulpoyada gullar ketma-ket joylashgan  
 B) a-asosiy gulpoyasi shoxlangan; b-atrofi o'rama bargchalar bilan o'ralgan  
 C) a-asosiy gulpoyasi shoxlanmagan; b-asosiy gulpoyasi shoxlangan  
 D) a-atrofi o'rama bargchalar bilan o'ralgan; b-gullar gulpoyaga uzun bandlar bilan birikadi
66. Karamdoshlar oilasi vakillarining ra'nodoshlar oilasi vakillaridan farqlarini toping.  
 1) gulqo'rg'oni murakkab, a'zoli; 2) barglari yonbargchali; 3) gullari to'g'ri, ikki jinsli; 4) shingil to'pgul hosil qiladi; 5) changchilari ikkita halqada joylashgan; 6) bargalari doim oddiy; 7) bargalari poyada ketma-ket joylashgan  
 A) 1,2 B) 3,4,7 C) 2,3,6 D) 5,6
67. Quyida keltirilgan madaniy o'simliklar orasidan har xil markazdan kelib chiqqan o'simliklarni aniqlang.  
 1) sholi; 2) sabzi; 3) qalampir; 4) loviya; 5) banan; 6) shakarqamish; 7) tariq; 8) kofe daraxti  
 A) 2,7 B) 5,8 C) 1,6 D) 3,4
68. Spirogira (I) va ossillatoriya (II) uchun xos bo'lgan belgilarni toping.  
 1) hujayra markazi xujayra bo'linishida ishtirok etadi; 2) tarkibida xlorofil pigmenti mavjud; 3) erkin azotni o'zlashtiradi; 4) irsiy material yadroga joylashgan; 5) donador endoplazmatik to'rda oqsillar sintezlanadi; 6) mitoxondriyada kislorodli oksidlanish sodir bo'ladi  
 A) I-3,6; II-4,5 B) I-1,4; II-5,6 C) I-3,5; II-2,4 D) I-3,6; II-2,4
69. Itsigak (a) va isirg'ao't (b) ga xos bo'lgan belgilarni ajrating.  
 1) gultojibarglarning 2 tasi qo'shilgan, 3 tasi erkin; 2) barglari oddiy yonbargsiz; 3) avtor o'simlik; 4) gulqo'rg'oni oddiy, tojbarsimon; 5) barglari yonbargchali; 6) sho'radoshlar oilasiga mansub; 7) dukkadoshlar oilasiga mansub; 8) gulqo'rg'oni oddiy kosachasimon  
 A) a-2, 4, 6; b-1, 3, 7  
 B) a-1, 3, 7; b-2, 4, 6  
 C) a-1, 3, 5; b-2, 6, 8  
 D) a-2, 6, 8; b-1, 5, 7
70. Organizmlarning qaysi sistematik guruhlari idioadaptatsiyalar natijasida paydo bo'lgan?  
 1) suyakli baliqlar; 2) pardaqanotlilar; 3) suluv ninachi; 4) yassi chuvalchanglar; 5) toq tuyoqlilar; 6) oltinrang krot; 7) mol kanasi  
 A) 3,6,7 B) 1,4,5,6 C) 3,4,5 D) 1,2,3,6
71. Ara to'tiqushi va kakaduning (a), galapagos arxepelagi har bir orolidagi vyurok turlarining (b) kelib chiqishi qanday jarayonlar natijasi hisoblanadi?  
 A) a- allopatrik tur paydo bo'lishi; b-simpatrik tur paydo bo'lishi  
 B) a- simpatrik tur paydo bo'lishi; b-simpatrik tur paydo bo'lishi  
 C) a- simpatrik tur paydo bo'lishi; b-allopatrik tur paydo bo'lishi  
 D) a- allopatrik tur paydo bo'lishi; b-allopatrik tur paydo bo'lishi
72. Organizmlarning qaysi sistematik guruhlari aromorfozlar natijasida paydo bo'lgan?  
 1) tog'ayli baliqlar; 2) suyakli baliqlar; 3) tikandum skat; 4) sudralib yuruvchilar; 5) panjaqanotli baliqlar; 6) latimeriya; 7) soxta kurakburun  
 A) 1,2,3 B) 1,2,4 C) 4,5,7 D) 3,6,7

## KIMYO

73. Qaysi modda yordamida aminokislota va oqsillardagi aminoguruhlarni miqdoriy analiz qilish mumkin?  
 A) fenol  
 B) nitrit kislotasi  
 C) metanal  
 D) sianid kislotasi
74. Buten-3-kislota molekulasida tarkibidagi ikkinchi uglerod atomining oksidlanish darajasini toping.  
 A) +1 B) -2 C) -3 D) +3
75. Quyidagi qaysi modda faqat oksidlovchilik xossasini namoyon qiladi?  
 A)  $PbO_2$   
 B)  $H_2O_2$   
 C)  $Cu_2O$   
 D)  $Fe^{2+}$
76. Bir xil aminokislota qoldig'idan tarkib topgan 52,8 g dipeptid yetarli miqdordagi xlorid kislotasi eritmasida gidrolizlanganda 89,2 g modda hosil bo'ladi. Aminokislota ni aniqlang.  
 A) valin B) alanin C) glitsin D) leysin
77. Fosfor mo'l miqdordagi kislorodda yondirilganda olingan oksid 200 g 9,8% li fosfat kislotasi eritmasida eritilganda fosfat kislotasi miqdori 3 marta ortdi. Olingan eritmaga o'yuvchi natriy eritmasidan 540 g qo'shilganda hosil bo'lgan tuz massasini (g) aniqlang. Ishqor eritmasida suvning massasi NaOH massasidan 6,5 marta katta.  
 A) 72 B) 98,4 C) 14,2 D) 85,2
78. 0,3 mol laktoza gidrolizlanishidan olingan glukozaning moy kislotali biyg'ishidan hosil bo'lgan mahsulotlarni to'la neytrallash uchun necha gramm 28% li KOH sarflanadi?  
 A) 150 B) 300 C) 400 D) 200
79. Propanol, fenol va sirka kislotadan iborat aralashma Na metali bilan ishlanganda 4,48 litr (n.sh.) gaz ajraldi. Xuddi shunday miqdordagi aralashma  $NaHCO_3$  eritmasi bilan ishlanganda olingan gaz 195,6 g NaOH eritmasidan o'tkazilganda faqat  $NaHCO_3$  tutgan 4,2% li eritma hosil bo'ldi. Agar boshlang'ich aralashmada sirka kislotaning massasi propanol massasiga teng bo'lsa, propanol massasini (g) aniqlang.  
 A) 6 B) 24 C) 12 D) 3
80. Qaysi molekula tarkibida 3 ta  $sp^3$  va 2 ta  $sp^2$  – gibridlangan uglerod atomlari bor?  
 A) buten-2 B) izopren C) butadiyen-1,3 D) 2-metilbuten-1
81. Xinolin molekulasida qaysi halqalarning kondensirlanishidan hosil bo'ladi?  
 A) benzol va pirimidin  
 B) benzol va piridin  
 C) pirimidin va imidazol  
 D) piridin va imidazol
82. Analitik kimyoda Seyzel usulidan foydalanib oddiy efirlar tarkibidagi  $-OCH_3$ ,  $-OC_2H_5$  guruhlarni miqdoriy aniqlash mumkin. Etoksietanga 5,12 g konsentrlangan yodid kislotani qizdirib turib ta'sir ettirilsa, qancha miqdorda (g) organik modda olinadi? (reaksiya unumi 75%)  
 A) 2,34 B) 6,24 C) 3,12 D) 4,68
83. Qaysi alkan izomerlari sonining uning tarkibidagi uglerod va vodorod atomlari soni yig'indisiga nisbati 0,25:1 ga teng?  
 A)  $C_8H_{18}$   
 B)  $C_7H_{16}$   
 C)  $C_9H_{20}$   
 D)  $C_6H_{14}$

84. Kaliy permanganat va natriy nitratdan iborat (mol nisbati 1:1) aralashma qizdirilganda olingan kislorod mis naychadan o'tkazildi. Bunda mis naychaning 40%i oksidlandi. Olingan nay 320 g 98%li sulfat kislotada to'liq erisa, boshlang'ich aralashmadagi natriy nitrat massasini (g) aniqlang.  
A) 34 B) 17 C) 54,4 D) 68
85. Atom kristall panjarali moddalarni aniqlang.  
1)  $\text{CuSO}_4$ ; 2)  $\text{H}_2\text{S}$ ; 3) Ge; 4)  $\text{KOH}$ ; 5) B; 6)  $\text{HCl}$ ; 7) Ca; 8)  $\text{P}_4$ ; 9) Zn  
A) 3,5 B) 7,9 C) 1,4 D) 2,6,8
86. Miqdori 0,025 mol bo'lgan  $\text{PI}_3$  ning gidroliz mahsulotlarini to'liq neytrallash uchun sarf bo'ladigan 20% li  $\text{NaOH}$  eritmasining massasini (g) hisoblang.  
A) 25 B) 12 C) 16 D) 5
87. Ammiak sintez qilish jarayonida reaktordagi bosim 25% ga kamaydi. Boshlang'ich aralashmadagi azot bilan vodorod miqdori stexiometrik nisbatda bo'lsa, reaksiyadan keyin hosil bo'lgan gazlar aralashmasining hajmiy tarkibini aniqlang.  
A) 1/9; 5/9; 1/3  
B) 3/10; 3/10; 2/5  
C) 1/6; 1/2; 1/3  
D) 1/4; 1/4; 1/2
88. 2 molekula etin va 1 molekula  $\text{C}_3\text{H}_4$  trimerlanishidan olingan aromatik uglevodorodga konsentrlangan nitrat va sulfat kislotalar aralashmasi ta'sir ettirilganda tarkibida bittadan  $\text{NO}_2$  guruh tutgan nechta isomer hosil bo'ladi? (nitrogrupp o'riyentatsiyasi qoidasiga binoan o'rin almashadi, yon zanjimining nitrolanishi hisobga olinmasin)  
A) 3 B) 1 C) 4 D) 2
89.  $\text{MgSO}_4 \cdot n\text{H}_2\text{O}$  kristallogidratida suvdagi elektronlar soni magniyning elektronlari sonidan 7 marra ko'p bo'lsa, n ni aniqlang.  
A) 6 B) 10 C) 8 D) 7
90. Tarkibida massa bo'yicha 38,71% Me, 20,00% P va 41,29% O bo'lgan moddaning formulasini aniqlang.  
A)  $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2$   
B)  $\text{Ca}_3(\text{PO}_3)_2$   
C)  $\text{K}_3\text{PO}_4$   
D)  $\text{Na}_4\text{P}_2\text{O}_7$
91. Normal sharoitdagi gazning bosimi 4 marra, tempeturasi 2,5 marra oshirilganda uning molyar hajmi (litr/mol) nechaga teng bo'ladi?  
A) 22,4 B) 28 C) 5,6 D) 14
92. Tarkibida 70 % suv saqlagan 200 g  $\text{NaOH}$  eritmasi bug'latilib, tarkibida 10 % suv saqlagan eritma olindi. Eritma tarkibidagi suvning massasini (g) aniqlang.  
A) 4,56 B) 5,56 C) 6,67 D) 6,06
93. 200 g 14,2%  $\text{Na}_2\text{HPO}_4$  eritmasiga yetarli miqdorda 100 ml  $\text{H}_3\text{PO}_4$  eritmasi qo'shildi. Bunda olingan eritmadagi  $\text{NaH}_2\text{PO}_4$  tuzining massa ulushi  $\text{Na}_2\text{HPO}_4$  tuzining massa ulushidan 71/40 marra kam bo'ldi. Qo'shilgan  $\text{H}_3\text{PO}_4$  eritmasining molyarligini (M) aniqlang.  
A) 0,1 B) 0,3 C) 0,4 D) 0,5
94. 40 g X% li  $\text{NaOH}$  eritmasiga 60 g Y% li  $\text{NaOH}$  eritmasi qo'shildi. Natijada 24% li eritma olindi. Agar eritmalar konsentratsiyalari nisbati mos ravishda 1:2 kabi bo'lsa, Y ning qiymatini toping.  
A) 30 B) 32 C) 20 D) 24
95. Eritmadagi  $\text{H}^+$  ionlari  $\text{OH}^-$  ionlaridan  $10^6$  marra ko'p bo'lsa, eritmadagi pOH qiymatini toping.  
A) 4 B) 10 C) 9 D) 3
96. Xlorid kislotaga va xloridlarni aniqlash uchun qaysi kationning eruvchan tuzi ishlatiladi?  
A)  $\text{Cu}^{2+}$   
B)  $\text{Fe}^{2+}$   
C)  $\text{Na}^+$   
D)  $\text{Ag}^+$
97.  $\text{NH}_3 + \text{KClO} \rightarrow \text{KCl} + \text{N}_2 + \text{H}_2\text{O}$  reaksiya bo'yicha oksidlovchi  $6 \cdot n_A$  elektron olgan bo'lsa, ajralgan gaz hajmini (l, n.sh.) toping.  
A) 11,2 B) 33,6 C) 22,4 D) 44,8
98. 0,28 % li  $\text{KOH}$  ning 0,2 kg eritmasi 5A tok bilan 26,8 soat davomida elektroliz qilindi. Eritmaning pH ni toping. ( $\rho = 1,55 \text{ g/ml}$ )  
A) 12 B) 13 C) 11 D) 4
99. 15,3 g metall oksididan 80,1 g metall bromidi olingan. Shu metall hosil qilgan sulfid tuzining 0,3 moli massasini (g) aniqlang.  
A) 45,0 B) 62,4 C) 60,0 D) 29,1
100. Ammoniyning karbonati va gidrokarbonati qizdirishdan olingan gaz mahsuloti normal sharoitga keltirildi. So'ngra gazlar aralashmasi mo'l miqdordagi xlorid kislotaga eritmasidan o'tkazildi. Natijada gazlar aralashmasining hajmi 2,5 marra kamayadi. Dastlabki aralashmadagi tuzlarning mol nisbatini toping.  
A) 1:2 B) 1:4 C) 1:1 D) 1:5
101. Quyidagi qotishmalarning qaysilarida likvatsiya hodisasi kuzatiladi?  
1) Fe-Ag; 2) Cu-Au; 3) Sn-Al; 4) Fe-Pb; 5) Pt-Au; 6) Al-Na  
A) 2,4,6 B) 1,2,4 C) 3,5,6 D) 1,4,6
102.  $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot x\text{H}_2\text{O}$  kristallogidrat o'ziga qizdirilganda  $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$  tarkibli kristallogidrat hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan suv bug'i dastlabki kristallogidrat tarkibidagi suvning 2/5 qismini tashkil etsa, kristallogidrat tarkibini aniqlang.  
A)  $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 12\text{H}_2\text{O}$   
B)  $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 15\text{H}_2\text{O}$   
C)  $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 8\text{H}_2\text{O}$   
D)  $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$
103.  $x\text{MgCO}_3 = y\text{MgCO}_3 + z\text{MgO} + \text{zCO}_2$  ifoda qanday ma'noni anglatadi?  
A) reaksiyaning mahsulot unumi 100% dan kichikligi  
B) tuzning namlik darajasi yuqori ekanligi  
C)  $\text{MgCO}_3$  tarkibida qo'shimchalar borligini  
D) reaksiyaning qaytarligini
104. CO va  $\text{CO}_2$  gazlar aralashmasining 16,8 litri (n.sh.) da  $14,5 \cdot n_A$  dona elektron bo'lsa, aralashmadagi  $\text{CO}_2$  ning miqdorini (mol) toping.  
A) 0,60 B) 0,35 C) 0,5 D) 0,25
105. Rux metalli ikki xil konsentratsiyali nitrat kislotalarda eritilganda ajralgan NO va  $\text{N}_2\text{O}$  larning hajmlari teng bo'lsa, reaksiyaga kirishgan Zn larning mol nisbatni aniqlang.  
A) 3:8 B) 3:4 C) 2:1 D) 1:1
106. Qaysi tuz eritmasida ishqoriy muhitni ta'minlash gidrolizlanish reaksiyasini susaytiradi?  
A)  $\text{MgSO}_4$   
B)  $\text{NaNO}_3$   
C)  $\text{K}_2\text{SO}_3$   
D)  $\text{ZnCl}_2$
107. Alkan molekulyar massasi uning takibidagi uglerod va vodorod atomlari massalari ayirmasidan (m.a.b) 20 m.a.b ga ortiq bo'lsa, alkanni aniqlang.  
A) etan B) butan C) pentan D) propan
108. 26,8 g olma kislotaga stexiometrik nisbatda Na metalli qo'shilganda olingan  $\text{H}_2$  ni 11,2 litr (n.sh.)  $\text{C}_2\text{H}_2$  bilan ta'sirlashtirildi. Natijada olingan gazlarni to'liq yondirish uchun necha mol havo kerak?  
A) 1,2 B) 7 C) 1,4 D) 1,8